

O‘ZBEKISTON MAKTABLARIDA ILG‘OR PEDAGOGIK TAJRIBALAR TADBIQI

Azamov Omadjon Burxonovich

Andijon davlat chet tillari instituti

Nemis tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasi mudiri, (PhD) dotsent.

Annotatsiya: *Maqolada umumta’lim maktablarida zamonaviy ta’lim sifatini oshirishda ilg‘or tajribalarning tutgan o‘rni tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *ilg‘or tajriba, innovatsiya, interfaol metod, raqamli texnologiya, CLIL, STEAM, zamonaviy ta’lim, o‘quvchi faolligi, o‘qituvchi kompetensiyasi*

Annotation: *This article analyzes the role of best practices in improving the quality of modern education in general secondary schools.*

Keywords: *best practice, innovation, interactive method, digital technology, CLIL, STEAM, modern education, student engagement, teacher competence.*

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida umumta’lim maktablarida ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarni hayotga tayyorlash va ijodiy fikrlashga o‘rgatish muhim vazifaga aylangan. Ushbu maqsadlarga erishish uchun ilg‘or pedagogik tajribalar va zamonaviy ta’lim texnologiyalarini joriy etish zarur. Ta’limda ilg‘or tajriba – bu pedagogik faoliyatda samarali va zamonaviy metodik yondashuvlarni ishlab chiqish, ularni amaliyotga tatbiq etish orqali o‘quv jarayonini yanada sifatli tashkil etish demakdir. Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy ta’kidlaganidek: “Ta’limning vazifasi – insonni mukammallikka yetkazishdir.” Shu nuqtayi nazardan, ta’limda ilg‘or tajribalarning joriy etilishi shaxsni har tomonlama rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

Ilg‘or pedagogik tajriba bu – o‘qituvchining o‘z faoliyatida yangilik yaratishga intilishi, amaliyotda sinovdan o‘tgan, samarali natija bergan yondashuvlar majmuasidir. Ular ko‘pincha metodik yangiliklar, interfaol texnologiyalar yoki innovatsion modellar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Bularga CLIL, STEAM kabilar misol bo‘ladi. Bundan tashqari interfaol metodlar, differensial yondashuv, raqamli texnologiyalar ham ta’lim sifatini yaxshilashda muhim o‘rin egallaydi. Men bu yerda STEAM tizimiga urg‘u berib o‘tmoqchiman.

STEAM — bu zamonaviy, innovatsion va ko‘p fanli yondashuv bo‘lib, o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan. Bu model an’anaviy STEM tizimiga san’at (Arts) fanini qo‘shgan holda, nafaqat texnik bilimlarni, balki kreativ va estetik tafakkurni ham rivojlantirishni nazarda tutadi. STEAM orqali o‘quvchilar fanlararo fikrlash

ko‘nikmasini o‘zlashtiradilar. STEAM tizimining afzalliklari: o‘quvchilar bilimlarni ajratilgan fanlar sifatida emas, balki bir-biri bilan bog‘liq ko‘nikmalar sifatida o‘zlashtiradilar; o‘rgatilayotgan mavzular hayotiy holatlar asosida olib boriladi (masalan, robot yasash, ekologik muammolarni hal qilish, ijtimoiy loyihalar; san‘at elementi tufayli o‘quvchilar yangicha yondashuvlarni topishga intiladilar; loyiha asosida ishlash, guruhlarda fikr almashish, o‘z iqtidorini namoyon qilish o‘quvchini ilhomlantiradi. Bugungi kunda zamonaviy kasblarning katta qismi texnologiya, dizayn va kreativlikka asoslangan. Shuning uchun STEAM modeli orqali ta‘lim olgan yoshlar raqobatbardosh, innovatsion fikrlovchi va zamon talablari bilan hamnafas mutaxassislar bo‘lishadi. Misol uchun, sun‘iy intellekt, raqamli marketing, sanoat dizayni, muhandislik, animatsiya va IT sohalari STEAM yondashuviga bevosita bog‘liq.

Bugungi kunda zamonaviy kasblarning katta qismi texnologiya, dizayn va kreativlikka asoslangan. Shuning uchun STEAM modeli orqali ta‘lim olgan yoshlar raqobatbardosh, innovatsion fikrlovchi va zamon talablari bilan hamnafas mutaxassislar bo‘lishadi. Misol uchun, sun‘iy intellekt, raqamli marketing, sanoat dizayni, muhandislik, animatsiya va IT sohalari STEAM yondashuviga bevosita bog‘liq. STEAM ta‘limi AQSh, Koreya, Finlandiya, Singapur, Germaniya kabi mamlakatlarda maktabgacha ta‘limdan boshlab yuqori darajaga qo‘llanmoqda. Maxsus STEAM maktablari, STEAM laboratoriyalar, musobaqalar va grant dasturlari orqali o‘quvchilarning salohiyati qo‘llab-quvvatlanadi.

Yaqin kelajakda STEAM yondashuvi barcha ta‘lim tizimlarining ajralmas qismiga aylanadi. Ayniqsa, sun‘iy intellekt, avtomatlashtirilgan tizimlar va raqamli san‘at rivojlanib borayotgan bir paytda, bu model global raqobatbardoshlikning kalitidir.

Xorijiy mamlakatlar tajribasiga nazar soladigan bo‘lsak. Albatta Finlandiya, Yaponiya va Germaniya tizimini ko‘rib chiqishimiz kerak. Finlandiyada o‘qituvchiga ishonch va erkinlik, o‘quvchiga ijodiy muhit, testlar o‘rniga amaliy baholash birinchi o‘rinda turadi.

Yaponiyada esa Lesson Study modeli asosida doimiy o‘zaro tahlil va tajriba almashinuvi olib boriladi. Germaniya ta‘lim tizimiga kelsak doim mening qiziqishim va e‘tiborimda bo‘lgan. Germaniyada hozirgi kunda dual ta‘lim tizimi orqali nazariya va amaliyot uyg‘unlashtirilmoqda.

O‘zbekiston ta‘lim tizimida ham ilg‘or tajribalar olib borilmoqda ta‘lim sifatini yanada yaxshilash va yuqori malakali kadrlarni tayyorlash uchun. Ya‘ni prezident maktablari, innovatsion maktablar, metodik markazlar tashkillashtirilmoqda. Bularning natijasida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv shakllanmoqda; o‘qituvchilar o‘z ustida ishlayapti, kasbiy faollik ortyapti; ta‘limda natijadorlik va qiziqish darajasi oshmoqda. Mana shunday davom etadigan bo‘lsak, biz ham yaqin yillarda ilg‘or ta‘lim tajribalariga ega mamlakatga aylana olamiz. Mashhur pedagog V.A. Sukhomlinskiy

aytganidek: “Yaxshi o‘qituvchi nafaqat bilim beradi, balki qalbdagi orzu uyg‘otadi”. Ilg‘or tajribalar esa aynan ana shunday orzularni uyg‘otish vositasidir.

Xulosa qilib aytganda, umumta’lim maktablaridagi ilg‘or tajribalar o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish, o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini yuksaltirish hamda zamonaviy jamiyat talablariga mos shaxslarni tarbiyalashda muhim vositadir. Ilg‘or metodlar orqali ta’lim jarayoni jonlanadi, o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi interaktivlik kuchayadi. Har bir pedagog zamon bilan hamnafas bo‘lishi, o‘z faoliyatiga yangilik kiritishga tayyor bo‘lishi zarur. Zero, ta’limdagi har bir yangilik – bu kelajak poydevoridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduraxmonov S. “Zamonaviy ta’lim texnologiyalari”, Samarqand, 2021.
2. Soliyev A. “Innovatsion pedagogika”, Toshkent, 2020.
3. V.A. Sukhomlinskiy. “Yurakdan yurakka”, Moskva, 1981.
4. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi – www.edu.uz
5. UNESCO rasmiy sayti – www.unesco.org
6. OECD ta’lim statistikasi va xalqaro hisobotlari – www.oecd.org